

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi
“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Mahalliy va xorijiy g‘o‘za navlarining turli tuproq-iqlim sharoitlarida “Shinjon” tajribasi asosida etishtirishda etefon tarkibli preparatlarni qo‘llash va defoliatsiya (desikatsiya) ishlarining amalga oshirishning hosildorlik, tola va chigit sifati, moydorligiga ta‘sirini aniqlash hamda maqbul me‘yor va muddatlarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: -mahalliy va xorijiy g‘o‘za navlarining turli tuproq-iqlim sharoitlarida maqbul ko‘chat qalinligi, sug‘orish muddatlari va me‘yorlari, aniqlanadi; -turli tuproq-iqlim sharoitlarida etishtirilayotgan mahalliy va xorijiy g‘o‘za navlarini mineral o‘g‘it me‘yorlari aniqlanadi; -“Shinjon” tajribasi asosida etishtiriladigan mahalliy va xorijiy g‘o‘za navlarini suvga bo‘lgan talabi aniqlanadi, suv sarfi an‘anaviy g‘o‘za etishtirishga nisbatan 35-40% ga suv iqtisod qilinadi, begona o‘tlarga qarshi kurashishda kimyoviy preparatlarni sepish muddatlari va me‘yorlari aniq belgilanadi. - mahalliy va xorijiy g‘o‘za navlarini pishib etilishini tezlashtirishda etefon va defoliatsiya preparatlarni sepish muddatlari va me‘yorlari aniqlanadi; - Shinjon tajriba asosida etishtirishda ko‘chat soni ko‘pligi, mineral o‘g‘itlarni yaxshi o‘zlashtirishi, suvga bo‘lgan talabni to‘g‘ri belgilash, begona o‘tlarni kimyoviy preparatlar kurashish hisobiga 20-25 % ga paxta hosili ortadi, shuningdek, an‘anaviy g‘o‘za etishtirishga nisbatan ketadigan xarajat miqdori 15-20 % ga iqtisod qilinadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.